

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

**Toshkent arxitektura-qurilish
universiteti rektori**

B.A. Tulaganov

2025 y.

**STAJYOR-TADQIQOTCHILIK, TAYANCH DOKTORANTURA VA
DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONI**

D A S T U R I

**18.00.01 - “Arxitektura nazariyasi va tarixi,
arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash”**

Toshkent - 2025

Dastur Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Kengashida ko'rib chiqilgan va 2025 yil "04" sentyabrda "2" son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar:
Shoisoyev I.K.

TAQU, "Arxitektura yodgorliklari" kafedrasini mudiri,
fanlari bo'yicha falsafa doktori, v.b. professor

Mamatmusayev T.Sh.

TAQU, "Arxitektura yodgorliklari" kafedrasini professori,
arxitektura fanlari doktori, professor

Po'latov X.Sh.

KIUT, "Arxitektura" kafedrasini professori, arxitektura
fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar:
Salimov O.M.

TAQU, "Arxitektura yodgorliklari" kafedrasini professori,
arxitektura fanlari doktori, professor

Ziyayev A.A.

O'zR FA "San'atshunoslik" instituti "Me'morlik"
bo'limi boshlig'i, arxitektura fanlari doktori, professor

Ushbu dastur "Arxitektura yodgorliklari" kafedrasining 2025 yil "9"

09" da "2" son majlisida ko'rib chiqilgan.

"Arxitektura yodgorliklari"

kafedrasini mudiri

arx.f.f.d., dot. Shoisoyev I.K.

KIRISH

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy - ma'naviy sohalarida taraqqiyot hamda yangilanishning o'ziga xos va o'ziga mos yo'lini tanladi. Mamlakatimiz o'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Vatanimizda sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarimizga o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilish, bunyodkorlik bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyat yaratildi.

Ushbu dastur "Arxitektura" va "Qishloq hududlarini arxitektura loyihaviy tashkil etish" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha "Arxitektura tarixi va nazariyasi", "O'zbekiston yangi arxitekturasi", "Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish", ANTAYoT-70730103 mutaxassisligi bo'yicha "O'zbekiston arxitektura yodgorliklari", "Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash" kabi fanlarni qamraydi. Dastur mustaqillik yillari qayta qurilgan shaharlar, yirik me'moriy obidalar, maydonlar, jamoat binolari, turar joylar, muhandislik inshootlarining uslubiy va badiiy mahorati tavsifini hamda istiqbol yillaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning arxitektura va shaharsozlik bilan o'zaro bog'liqligini ifoda etadi.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish tajribasi, oqilona va odilona ichki hamda tashqi siyosati, tanlagan yo'li - rivojlanishning «O'zbek modeli» nomi bilan dunyoga tanildi. Istiqbolning dastlabki kunlaridan boshlab milliy an'analarimizga asoslangan yangi davlatchilik nazariyasi, milliy tiklanish g'oyasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston - qadimgi tamaddun, boy madaniy meros va yuksak arxitektura an'analariga ega mamlakat. Uning ko'plab katta va kichik shaharlarining yoshi ming yillarni tashkil etadi. O'zbekiston hukumati va YuNESKO qarori bilan 1997 yilda Buxoro va Xivaning 2500 yilligi, 2001 yilda Termizning 2500 yilligi, 2006 yilda Qarshining 2700 yilligi, Shahrisabzning 2700 yilligi, 2007 yilda Samarqandning 2750 yilligi, 2009 yilda esa Toshkentning 2200 yilligi keng tantana qilindi. Bunyodkor o'zbek xalqiga unut bo'lgan tarixiy obidalari qaytarilmoqda. Sho'rolar davrida ular yo'qotib yuborishga mahkum etilgan edi. Milliy madaniyatimiz durdonalariga nisbatan olib borilgan ikkiyuzlamachilik siyosati hamma joyda ko'zga tashlanardi - hatto qadimgi g'ishtlardan foydalanish maqsadida ko'plab yodgorliklar buzib tashlandi, huvillab qolgan madrasa va masjidning ko'pchiligi omborlarga, idoralarga shuningdek qamoqxonalarga aylantirilgan edi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz shaharlarining talay me'moriy shaharsozlik loyihalari amalga oshirildi. Shaharlarning markazlari, ularning

tarixan shakllangan "eski shahar" qismlari qayta tiklandi. Noyob jamoat binolari, zamonaviy mehmonxonalar, maktablar va litseylar, sport majmualari qad ko'tardi, bozorlar yangilandi, yakka tartibdagi loyihalar bo'yicha turar-joy uylari qurilishida katta imkoniyatlar ochildi. Oxirgi yillarda butun mamlakat transport infrastrukturasi qayta tiklash va rivojlantirishga ayricha e'tibor berildi. Yo'llar, ko'priklar va boshqa muhandislik inshootlari barpo etildi. Jahon bozori bilan qulay va eng qisqa yo'l orqali aloqa o'rnatishga intilish O'zbekiston Respublikasining strategik jihatdan muhim vazifasi bo'lib qoldi. Mazkur masalani hal etishda mamlakat rahbariyati tanlagan yo'l – tarixan yuzaga kelgan Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash va rivojlantirish yo'li amalda to'la ro'yobga chiqarilmoqda.

Darhaqiqat, me'morchilik – xalqning tarixiy yodgorligi bo'lib, u aksar hollarda me'morning ijodiy ilhomi jo'sh urganda yaratiladi. U ajdodlar orzu-umidlaridan, jamiyat ko'zgusi sifatida o'tmishdagi va hozirdagi har bir davrning me'moriy qudratidan darak beradi. Bunda o'ziga mayda-chuyda g'oyalarni, badiiy yutuqlarni – zamonasining ijodiy-estetik g'oyalarini singdirib olgan moddiy-kenglik muhiti alohida ahamiyat kasb etadi, xalq g'ururining negizi va kuchini tashkil etadi hamda asrlar osha uning bebaho mulki bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan XX–XXI asrlar boshi O'zbekiston me'morchiligi tadqiqoti mutlaqo ilmiy-amaliy ahamiyatga molik hisoblanadi, zero vaqt o'tmishdoshlar bilan yelkama-yelka turishni, vorislik ufqlarini kengaytirishni taqozo etadi, xalq mulkini, o'tmishining ijobiy tajribasini va zamonaviy me'morchilik yutuqlarini har taraflama fikrlash va o'zlashtirishni talab qiladi. Bunda shaharsozlik muammolari va yangi ma'naviy ideallarga, ijtimoiy buyurtma imkoniyatlariga tayanuvchi zamonaviy inshoot me'moriy qiyofasini yaratishning yangi vositalari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Dastur olti bo'limdan iborat bo'lib, ularning ketma-ketligi umumiydan-xususiyga, qadimdan-hozirgi kungi tamoyili asosida ta'minlangan. O'rta Osiyoga, birinchi navbatda O'zbekistonga ustivor e'tibor berilgan.

Dasturning maqsad va vazifalari

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 304-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida"gi Nizom talablarini bajarish maqsadida tuzildi.

Ixtisoslik fani bo'yicha kirish imtixonida talabgorning quyidagi jihatlari baholanadi: nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasi, uning ushbu fanning shakllanish va rivojlanish tarixi, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalari, manbalari, shu bilimlar tarmog'ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini qay darajada bilishini aniqlab berishi, uning sohaga oid ilmiy adabiyotlarni, jumladan xorijiy davriy nashrlarni hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qay darajada egallaganligi.

Talabgor tegishli fan sohasi rivojining hozirgi ahvoli, muammolari va istiqbollari, unda o'tkazayotgan tadqiqotning o'rni, yangiligi va ahamiyatini bilishini ko'rsatib berishini nazarda tutadi.

Ushbu dastur arxitektura tarixi, nazariyasi, me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va saqlash bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lib, 18.00.01– "Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash" mutaxassisligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirishda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, arxitekturashunos, ta'mirshunos, arxitekturaviy merosni o'rganish va ularni saqlash bo'yicha mutaxassislardan, ularning yuqori darajadagi bilim va kasbiy malakalarga ega bo'lishligi, ta'mirlash bilan bog'liq ilg'or usullarini puxta o'rganishlari, bu borada, ayniqsa, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni, arxitekturaviy yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish usullarini puxta bilishlarini talab etiladi.

Dasturning maqsadi - kadrlarga zamonaviy talablarni ko'zda tutib, tayanch doktoranturaga kiruvchilarning arxitektura nazariyasi va tarixi, magistratura mutaxassisligi fanlari, arxitektura va shaharsozlik tarixi, arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish kurslari bo'yicha bilimlarini ob'ektiv baholashdan iborat.

Imtixon dasturiga quyidagi yo'nalishlar kiradi: San'at tarixi, Arxitektura tarixi, Shaharsozlik tarixi, O'rta Osiyo arxitekturasi tarixi, Yangi arxitektura tarixi (Chet el yangi arxitekturasi, O'zbekiston va MDH mamlakatlari arxitekturasi), Arxitektura nazariyasi va tarixi, Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta qurish, O'zbekiston arxitektura yodgorliklari, Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash.

Dastur maqsadi – talabgorlarda arxitektura nazariyasi, tarixi va shaharsozlikning yangi bosqichdagi uslub va yo'nalishlari bo'yicha ko'nikma va malaka darajasini aniqlashdan iborat. Dasturning vazifasi – zamonaviy me'morchilik asoslarini o'rganish, eng yirik me'morlar hayoti va ijodini tahlil

etib, ularning yutuqlaridan unumli foydalanish, hamda boy tarixiy an'anaviy uslublarimiz orqali zamonaviy o'zbek arxitekturasini rivojlantirishdan iborat.

3. Talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar

Kirish imtihonlari dasturiga doktoranturada ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash dasturi bo'yicha 18.00.01 - "Arxitektura nazariyasi va tarixi, arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash" ilmiy mutaxassisligi bo'yicha mutaxassis yoki magistr o'zlashtirishi kerak bo'lgan asosiy savollar kiritilgan.

Talabgor ilmiy mutaxassislik sohasidagi asosiy nazariy ma'lumotlarni bilishi, ushbu ma'lumotlarning amaliy qo'llanilishini, berilgan muammolarni hal qilish usullarini bilishi va terminologiyani o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

1 - qism. Tayanch doktoranturaga kirish imtihonini tashkil qilish

4. Kirish imtihoni shakli va davomiyligi

Tayanch doktoranturaga kirish imtihoni 4 ta savoldan iborat bo'lib, dastlabki 3 ta savol yozma shaklda, 4-savol og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi.

1-3-savollar bo'yicha talabgorlarga yozma javob tayyorlash (yozish) uchun 90 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt beriladi.

4-savol (og'zaki shaklda)

Talabgorga 10-15 daqiqa tayyorlanish uchun vaqt beriladi, javobni imtihon komissiyasi a'zolari tinglaydi.

Savol: Siz tanlagan ilmiy yo'nalish bo'yicha dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqing: mavzuning dolzarbligi, maqsadi, asosiy vazifalari, tadqiqot metodlari va kutilayotgan ilmiy natijalarini qisqacha bayon qiling.

5. Baholash mezonlari

Kirish imtihonining natijasi 100 ballik tizimda baholanadi. 1-3-savollar uchun yozma javoblar, 4-savol uchun og'zaki javob baholanadi. Har bir savol maksimal 25 ball bilan quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

1-3-savollar uchun yozma javoblarni baholash mezonlari

Mezon	Ballar miqdori
Javob to'liq, izchil va mantiqiy, mavzu chuqur yoritilgan, savollarga aniq javob berilgan	25
Xatolar bilan, lekin asosiy qism to'g'ri va tushunarli yoritilgan	15
Mavzuning faqat asosiy qismi qisman yoritilgan, to'liq emas	10
To'liq bo'lmagan, jiddiy xatolar bor	5
Javob tayyorlanmagan yoki noto'g'ri	0

4-savol uchun og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Tavsifi	Ball
Mavzuning dolzarbligi	Tanlangan mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan	5 ball
Maqsad va vazifalar	Maqsad va vazifalar aniq va mantiqan bog'langan	5 ball
Tadqiqot metodlari	Ilmiy usullar to'g'ri tanlangan va izohlangan	5 ball
Kutilayotgan natijalar	Ilmiy yangilik va amaliy ahamiyat ko'rsatib berilgan	5 ball
Mantiqiylik va nutq madaniyati	Javob izchil, tushunarli va ilmiy uslubda ifodalangan	5 ball

6. Yakuniy ballar teng bo'lganda ustunlik berish tartibi

Agar stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha bir nechta talabgorlarga qo'yilgan yakuniy ballar teng bo'lsa, quyidagi ustunliklar qo'llaniladi:

a) Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktorantura uchun:

- magistraturani a'lo baholar bilan tamomlaganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- ilmiy maqolalari, jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganlarga.

b) Doktorantura uchun:

- 5 yildan ortiq ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lganlarga;
- mualliflik guvohnomalari va patentlarga ega bo'lganlarga;
- monografiyaga ega bo'lganlarga (ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun);
- dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli ilmiy jurnallarda, jumladan xorijiy jurnallarda ko'p miqdorda ilmiy maqolalar chop etganlarga;
- dissertatsiya tadqiqotining 50 foizdan ortiq qismini bajarganlarga.

TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH IMTIHONINING BO'LIMLARI VA MAVZULARI RO'YXATI

1-BO'LIM: SAN'AT TARIXI

Umumjahon san'ati. Ibtidoiy jamoa tasviriy faoliyati. Qadimgi Sharq va Egey dunyosi san'ati. Antik dunyo san'ati. Qadimgi O'rta Sharq san'ati. O'rta asrlar san'ati. Uyg'onish davri san'ati. XIV - XVII asrlar rus san'ati. XVII asr G'arbiy Yevropa san'ati. XVIII - XIX asrlar 1 - yarmi san'ati. XIX asr 2 - yarmi - XX asr san'ati. O'rta Osiyo san'ati. O'rta Osiyoning ibtidoiy jamoa davridagi san'ati. Antik davri me'morchilik san'ati. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar (VI - VIII asrlar) san'ati. IX - XIII asrlar san'ati. Temur va temuriylar davri (XIV -

XV asrlar) san'ati. O'rta Osiyoning XVI-XX boshlaridagi san'ati. O'zbekiston, MDH davlatlari san'ati. Istiqloq yillari san'ati.

2-BO'LIM: ARXITEKTURA TARIXI

Ibtidoiy jamoaning qurilish faoliyati. Qadimgi Misr arxitekturası. Qadimgi Ikki daryo oralig'i arxitekturası. Ellinizm arxitekturası. Qadimgi Rim arxitekturası. Vizantiya, Kiev davlati va Rossiyaning XIV-XVII asrlar arxitekturası. O'rta va Yaqin Sharq o'rta asrlar arxitekturası. Hindistonning o'rta asrlardagi arxitekturası. Xitoy va Yaponiyaning o'rta asrlar arxitekturası. G'arbiy Yevropaning romanikaarxitekturası. G'arbiy Yevropaning gotika arxitekturası.

Uyg'onish davri arxitekturası. Uyg'onish arxitekturasining ilk davri. Uyg'onish arxitekturasining yuksalgan davri. Uyg'onish arxitekturasining so'nggi davrida saroy - bog' san'atining rivojlanishi. Barokko arxitekturası. Barokko uslubining boshlang'ich davri. Yuksalgan barokko arxitekturası. Fransiya renessansi davri. Fransiya klassitsizmi davrlari. XVII asrning 1 - yarmidagi Fransiya arxitekturası. XVII asrning 2 yarmidagi Fransiya arxitekturası. Fransiyaning XVIII asr arxitekturası. Fransiyaning XIX asr arxitekturası.

3-BO'LIM: SHAHARSOZLIK TARIXI

Shaharsozlik tarixining umumiy tavsifi. Qadimgi Sharq mamlakatlari shaharsozligi. Qadimgi Misr, Old Osiyo shaharlari. Qadimgi O'rta Sharq. Eron, Baqtra shaharlari. Qadimgi Hindiston va Xitoy shaharsozligi. Qadimgi O'rta Osiyo shaharsozligi: Avesta, Shimoliy Parfiya, Shimoliy Baqtra, Sug'd, Xorazm, Choch, Parkana shaharlari.

Antik davrdagi shaharsozlik: Egey dunyosi, Qadimgi Yunoniston, ellinizm Qadimgi Rim shaharsozligi. O'rta asrlar shaharsozligi: Vizantiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, G'arbiy Yevropaning XV-XVII asrlardagi shaharsozligi: Uyg'onish, Barokko va Klassitsizm davrlari. Kiev davlati Qadimgi Rusiya shaharlari. Yaqin va O'rta Sharqning o'rta asrlardagi shaharlari. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar va rivojlangan o'rta asrlar shaharsozligi.

XVIII-XIX asr 1-yarmidagi shaharsozlik: G'arbiy Yevropa (Fransiya, Olmoniya, Angliya), Rusiya va Shimoliy Amerika shaharsozligi. O'rta Osiyoning shu davrdagi shaharsozligi. XIX 2-yarmi - XX boshidagi shaharsozlik: G'arbiy Yevropa (Fransiya, Germaniya, Angliya), Rossiya va Shimoliy Amerika shaharsozligi. O'rta Osiyoning shu davrdagi shaharsozligi.

4-BO'LIM: O'RTA OSIYO ARXITEKTURASI TARIXI

O'rta Osiyoning arxitekturası tarixining umumiy tavsifi. İlk davr me'morchiligi: eng ilk (m.a.VIII asrgacha) va ilk (m.a.VIII-IV a.) bosqichlari.

Qadimgi (ahmoniylar) va ilk antik va kushonlar davri me'morligi (VI-VIII) asrlar. IX-X asrlar me'morchiligi. XI-XII asrlar me'morchiligi. Bu davrdagi asosiy me'moriy maktablar. XIII-XIV asr o'rtasidagi me'morchilik. Amir Temur davri me'morchiligi. Temuriylar (XV a.) me'morchiligi. XVI asr 1-yarmi me'morchiligi. Abdullaxon (XVI asr 2-yarmi) va Ashtarxoniylar (XVII a.) me'morchiligi. XVIII-XIX asr o'rtasi davridagi me'morchilik: Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi me'morchiliklari. XIX asrning oxiri - XX asr boshidagi me'morchilik: yangi qurilish ashyolari, konstruksiyalari, yangi tipdagi bino va inshootlar. An'anaviy me'morchilikdagi o'zgarish. Misollar, Yevropa uslubida qurilgan bino va inshootlar. Ularda mahalliy me'morchilik unsurlarini qo'llanishi. O'rta Osiyo me'morchiligi rivojining umumiy yakunlari.

5-BO'LIM: YANGI ARXITEKTURA

Chet el yangi arxitekturası. Chet el zamonaviy arxitekturasining shakllanishi va vujudga kelgan shart-sharoitlari. XIX asr mobaynida shaharlar taraqqiyotida Yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi. Arxitektura yangiliklari markazining Angliyadan Amerikaga ko'chishi. Chet el arxitekturasining Birinchi jahon urushidan keyingi davr. XX asr - 20-30 yillardagi arxitektura. Birinchi jahon urushidan keyingi Fransiya siyosiy - iqtisodiy ahvoli. 30-yillarning boshlarida Angliyada yangi arxitektura g'oyalarining tarqalishi. V.Gropius. Ikkinchi jahon urushi oralig'i davridagi AQSh arxitekturası. Qurilish texnikasi va qurilish ishlab chiqarish vositalarining keskin rivoji natijasida urushdan keyingi davrida yangi arxitektura shakllarining tarqalishi. XX asr 50 - yillarning 2-yarmida Rayt boshqargan "Uzviy me'morlik" yo'nalishiga bo'lgan qiziqish va ratsionalizm arxitekturasiga ko'rsatilgan qarama-qarshiliklar. XX asrning 20-yillarida ekpressionizmning tiklanishi va uning urushdan keyingi davrda taraqqiy etishi.

O'zbekiston va MDH mamlakatlari arxitekturası. XIX-XX asrlar.

Rivojlanish davrlari: 1865-1917, 1917-1932, 1932-1954, 1954-1977, 1977-1991, 1991-2008. Tasmasimon va ixcham shahar rejalarining kelib chiqishi va ularni XVII-XX asrlardagi evolyusiyasi. O'zbekistonning ikki qismli shaharlari va ularni birlashtirishga qaratilgan ilk choralar. Ishchilar shaharchalari va ishchilar turar joylarini birinchi loyihalari, «Xlopstroy» va K.V. Babievskiyning turar joylari, Samarkandning kommuna uyi va Toshkentning kommuna kvartali, Toshkentning oshxona-fabrikalari, turmush umumlashtirishdagi yutuqlar va kamchiliklar. Urbanizm va dezurbanizm konsepsiyalari va A.A. Silchenkovning Toshkentni birinchi qayta rejalashtirish loyihasi. "Milliy uslub" yaratishga qaratilgan nazariy va amaliy asarlar. Birinchi texnikum va universitetlar, birinchi teatr va Xalq uylari. M.Ya. Ginzburgning "milliy me'morlik" nazariyasi va uni

O'zbekiston va Qozog'istonda qo'llanganligi. Me'morlik Akademiyasini tuzish, Moskva bosh rejası haqida Qaror, Toshkentning 1930-yillarda yaratilgan bosh rejalari va ansamblari. 1930-1950 yillardagi tarixiy shaharlarni "chegaralash" va "portlatish" konsepsiyalari. Radial-halqasimon rejalashtirishni tarqalishi. 1939-1954 yillarda yaratilgan Kutin, Ozerov-Rachinskaya va Merport seksiyalari. Toshkent M.S. Bulatovning 1949-yil rejasidan A.P.Bushuevning 1960-yil bashoratigacha. "Sharq+klassika" uslubi 1932-1954 yillar nazariya va amaliyotida: A.V.Иusev eklektika va Temuriylar xaqida, B.N.Zasypkin "Vatan" kinoteatri uslubi xaqida, E.Lachens orderlar haqida. Ortiqchalikka qarshi 1954-yil Qarori, yangi loyihalashtirish institutlari, DSKlar. Navoiy va Zarafshon yangi shaharlari, Toshkent metrosi. Yevropadan keltirilgan mikrorayon konsepsiyasining o'zgartirilishi. 1960-1980 yillarning tezqatnov yo'llarida turar joylar va ijtimoiy binolar majmualarining va orientir binolarining shakllanishi. 1950-1980 yillarining O'zbekiston me'moriy uslublaridagi internatsional, regional va milliy yo'nalishlari. TashZNIIPning 1970-1980 yillar turar joylarida o'tkazgan sotsiologik va mikroiklimiy tekshiruvlarining natijalari. Turar joylar hududlarining (жилые районы) va yirik rejalashtirilgan hududlarning (планировочные районы) shakllanish muammolari Sobiq SSSR va O'zbekiston Respublikasining "Qurilish me'yorlari va qoidalarida". O'zbekiston shaharlari rejalarni rivojlantirish kelajaklari va tarixiy shaharlarini ulardagi o'rni.

6-BO'LIM. O'ZBEKISTONNING ISTIQLOL YILLARI ME'MORLIGI

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi va milliy taraqqiyot yo'liga dadil qadamlar bilan kirib borishi shaharsozlikda xalq me'morlik merosidan o'nak olib, mahalliy sharoitlarga moslik, ko'rkam va shinamlik, jahon andozalaridan qolishmaslik kabi qator jihatlar e'tibor markazida bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston arxitektura va shaharsozligining yangi bosqichdagi ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog'liqligi. Shaharsozlik va arxitektura bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qator Farmon va qarorlari. Shaharsozlik: Qadimiy shaharlarning yangi qiyofasi, ularning bosh rejalari. Shahar markazlarining qayta qurilishi, yangi shaharlar va ularning taraqqiyoti.

Yirik ma'muriy va jamoat binolari arxitekturasi: Oliy Majlis, oqsaroy majmuasi, Toshkent shahar xokimligi binosi, temuriylar tarixi davlat muzeyi, viloyatlardagi yirik jamoat binolari, banklar, mehmonxonalar va h.k. Ommaviy jamoat binolari arxitekturasi: kasb-hunar kollejlari, litsey, sport va savdo-sotiq inshootlari va h.k. Turar joy binolari arxitekturasi: ko'pqavatli, kamqavatli, xususiy muhandislik inshootlar arxitekturasi: aeroportlar, temiryo'l vokzallari, metro, yo'llar, ko'priklar. Bog'-rog' va landshaft arxitekturasi. O'zbekiston istiqlol me'morchiligida san'atlar uyg'unligi, xalq ustalari va rassomlar ijodi.

Nazariy uslublar va yo'nalishlar. Me'moriy uslublarining mustaqillik yillaridagi yangilanishi.

7-BO'LIM. ARXITEKTURA NAZARIYASI

Tarixiy arxitektura nazariyasi. Qadimgi Sharq arxitektura nazariyasi. Qadimgi Yunon nazariyasi - Gippodam. Ellinizm davri nazariyasi - Aflotun. Qadimgi Rim nazariyasi - Vitruviy. O'rta asrlar Sharq nazariyasi - Farobiy, Buzjoniy. Uyg'onish davri nazariyasi - Vin'ola. Barokko davri nazariyasi - Palladio. Klassitsizm nazariyasi - Perre. XVIII-XX asrlar nazariyasi, Fransiya - Violle-le-Dyuk. XVIII-XX asrlar nazariyasi, Angliya - Govard. XVIII-XX asrlar nazariyasi, Germaniya - Zemper. XVIII-XX asrlar nazariyasi, Rossiya - Bajenov, Joltovskiy. XVIII-XX asrlar nazariyasi, Rossiya - I. Grabar. XIX-XX asrlar nazariyasi, Fransiya - Le-Korbyuze. XIX-XX asrlar nazariyasi - Germaniya. XIX-XX asrlar nazariyasi - B.Zasypkin, M.Bulatov. XIX-XX asrlar nazariyasi - P.Zohidov, K.Kryukov.

Tektonika va badiyat: an'anaviy tektonik vositalar. Orderlar tizimi. Toq-ravoqlar konstruksiyasi. Ratsional va irratsional nisbatlar. An'anaviy badiiy vositalar: nabotiy bezak, girih, hattoyi naqshlar.

8-BO'LIM. O'ZBEKISTON ARXITEKTURA YODGORLIKLARI

Arxitektura yodgorliklari to'g'risida ta'rif. Yodgorliklarning turlari. Alohida hajm shakllaridagi yodgorliklar. Majmua sifatidagi yodgorliklar. Tarixiy shaharlar. Tarixiy shaharlarga oid xalqaro xujjatlar. Me'moriy meros va arxitektura yodgorliklari. Iboralarning mazmunan o'zaro yaqinligi va farqi. Obidalarini muhofaza qilish tarixi va muammolari. YuNESKO ning me'moriy yodgorliklar va tarixiy shaharlar to'g'risidagi faoliyati. Madaniy meros departamenti faoliyati. Yer osti yodgorliklari. Ularni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. Qadimshunoslarning arxitektura tarixini o'rganishdagi roli. O'zbekistondagi tosh va bronza davrlariga oid yodgorliklar. Ilk temir davriga oid yodgorliklar. Antik davrdagi yodgorliklar. Eng ilk o'rta asr yodgorliklari. Devoriy sur'atlar va haykaltaroshlik asarlarini muhofaza qilish muammolari. O'zbekiston arxitekturasi IX-XIII asrlariga oid yodgorliklari. Misollar: Somoniylar maqbarasi va boshqalar. Bu davr yodgorliklarida olib borilgan ta'mirlash ishlari. Buxoro namozgohi - ikki qatlamli yodgorlik. Me'moriy obidalaridagi o'ymakorlik namunalari va ularni saqlash muammolari. Sopol, yog'och va ganch o'ymakorlik namunalari va ulardagi ta'mirlash ishlari. O'zbekiston arxitekturasi XIV-XVII asrlarga oid yodgorliklari. Sirkor bezak turlari va ularni tayyorlanishiga oid ma'lumotlar. Sirkor bezaklarni o'rganish. Xataba va

uning ahamiyati. Koshinpazlikni tiklash borasidagi tajribalar. Amir Temur va Ulug'bek davrlaridagi yodgorliklar. Ularda olib borilgan ta'mirlash ishlari. Shayboniylar davridagi yodgorliklar va ularda olib borilgan ta'mirlash ishlari. Ustun-to'sinli yodgorliklar. Sinchli obidalarni saqlash muammolari. O'zbekiston xalq arxitekturasini, ularni muhofaza qilish ishidagi o'ziga xoslik. Turar uylar namunalari. Fayzulla Xo'jaev uyining ta'mirlanishi. Toq-gumbazli yodgorliklar. Ularning namunalari. Xalq me'morligi obidalarini ta'mirlash va qayta qurish misollari.

9-BO'LIM, ARXITEKTURA SHAKLLARINI UYG'UNLASHTIRISH VA BEZASH

Garmoniya tushunchasi. Antik davr talqini. Tabiat garmoniyasi. Arxitektura - davr ko'zgusi. Go'zallik haqidagi tushuncha o'zgarishi. Muvozanat, mutanosiblik. Odam - go'zallik va garmoniya me'yori. Proporsiya - tabiat va jamiyat taraqqiyotining uzviy belgisi. Proporsiyaga oid atamalar mohiyati va mazmuni. Odam va arxitektura, odam va shahar. Odam va tasviriy san'at. Tabiatdagi oddiy o'zgarish, ratsional va irratsional miqdor, sonlar qatori va mohiyati. "Oltin kesim" nisbati va mohiyati. Dinamik kvadratlar va oltin kesim. Fibonachchi qatori. Proporsiyaga oid geometrik qonuniyat. Arxitekturada proporsiyaning ahamiyati. Uchburchak, oltiburchak, sakkizburchak shakllar silsilasi. Misr ehromlari - piramidalar tuzilishida kvadrat, uchburchak va doira shakllari. Modulning handasaviy va amaliy ahamiyati. Modulning kelib chiqishi, tizimi. Modulning kelib chiqishi, tizimi. Vitruviy nazariyasi va xatolari. Modul-miqyos O'zbekiston me'moriy me'rosida. Jahon adabiyotidagi shu sohaga tegishli tadqiqotlar. O'rta asr olimlarining me'moriy garmoniyaga aloqador matematik nazariyalari (Al Farobiy, Al Xorazmiy va boshqalar). O'rta Osiyo arxitekturasiga xos tarkibiy elementlar, ularning nomi va kelib chiqishi. Xalq me'morlari ijodida kuzatilgan ravoq va gumbaz yasash usul va uslublari. "Ulgitarh" - garmoniya qonuniyatlari asosida bino loyihasini tuzish usuli. Tarh, tarz, taxmin, reja, toriy, ayn markaz, ustma-ust joylashgan tarh, tarz va boshqa shakllar. P.Sh.Zohidovning "Kanon garmonii v arxitekture" va "Zeb ichra ziynat" asarlaridagi "ulgitarh" qonuniyatlarini o'rganish. M.Bulatovning "Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii" asaridagi handasaviy tahlillarini o'rganish. V.Filimonov, I.Notkin, K.Kryukovlarning proporsiya haqidagi fikr mulohazalarini o'rganish. O'rta Osiyo arxitekturasidagi bezak turlari va ularning rivojlanish tarixi. Tarixiy bezaklarni tiklashdagi muammolar.

II qism. Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga o'qishga qabul qilish suxbatini tashkil qilish

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturaga kirish imtihonlari to'liq suhbat (og'zaki) shaklida o'tkaziladi. Suhbat davomiyligi 30 daqiqagacha bo'lib, komissiya a'zolari tomonidan savol-javob tarzida olib boriladi.

Doktoranturaga qabul qilish suhbatini tashkil etish tartibi

fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlash uchun doktoranturaga kirishda topshiriladigan xujjatlar ro'yxatidagi "tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi" da keltiriladigan ma'lumotlar ro'yxati.

Rejalashtirilgan dissertatsiya mavzusining nomi 18.00.01- "Arxitektura nazariyasi va tarixi. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash" ilmiy mutaxassislik pasportiga muvofiq yo'nalishlarga mos kelishi kerak. Batafsil reja quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ilmiy muammo shakllantiriladi, uning dolzarbligi va ishning gipotezasi asoslanadi;
- 5 yildan ortiq bo'lmagan manbalar asosida o'rganilgan materiallarga asoslangan analoglar (dastlabki adabiyotlar tahlili) taqdim etiladi;
- tadqiqotning maqsadi, vazifalari va muammolarni hal qilish uchun taklif qilingan echimlar shakllantiriladi;
- ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos (kafedra, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot instituti, boshqa muassasalar), uning tadqiqotning talab qilinadigan hajmlari va ob'ektlarini taqdim etish qobiliyati ko'rsatilgan;
- tadqiqot ob'ekti, predmeti va rejalashtirilgan tadqiqotning o'ziga xos usullari va usullari ko'rsatiladi;
- kutilayotgan natijalar, qo'llash va amalga oshirishning mumkin bo'lgan doirasi (shakllar, bosqichlar, darajalar) ko'rsatilgan;
- ishni bajarishning kalendar muddatlari ko'rsatilgan (aniqrog'i, kalendar davrining oxiri va o'quv yoki tanlovni yakunlash uchun rejalashtirilgan dissertatsiya kengashiga taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosqichlar).

Stajyor-tadqiqotchilikka qabul qilish suhbatini tashkil etish tartibi

Suhbatning asosiy maqsadi — talabgorning tanlangan ixtisoslik bo'yicha ilmiy salohiyati, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyati va motivatsiyasini aniqlash.

Tanlangan ixtisoslik bo'yicha nazariy bilimlar:

Asosiy ilmiy tushunchalar, tadqiqot uslublari, sohaga oid zamonaviy ilmiy yutuqlarni bilish darajasi.

Tadqiqot mavzusi va dolzarbligi:

Talabgor tomonidan taklif etilgan dissertatsiya mavzusi dolzarbligi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.

Ilmiy tayyorgarlik:

Avvalgi ilmiy ishlari (maqolalar, tezislari, patentlar va b.), konferensiyalardagi ishtiroki, ilmiy qiziqish doirasi.

Metodologik yondashuvlar:

Talabgorning tanlagan mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqot usullarini qo'llay olish qobiliyati.

18.00.01 - "ARXITEKTURA NAZARIYASI VA TARIXI. ARXITEKTURA YODGORLIKLARINI TA'MIRLASH" IXTISOSLIGI BO'YICHA YOZMA SAVOLLAR

1. Buxorodagi savdo-sotiq majmualari tipologiyasi.
2. O'rta Osiyo sardobalari xususida ma'lumot bering.
3. Amir Temurning Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida o'rnatilgan haykallariga izoh bering.
4. O'rta Osiyoda ilk (musulmon) renessans davri arxitekturasini.
5. Mirzo Ulug'bek davri me'morligi.
6. Xolchayon saroyi me'morligi.
7. Buxoro amirligi me'morchiligi (Bola-Hovuz, Ark, Chor minor).
8. O'rta asr shaharlarining sxematik tuzilishi.
9. Masjidlarning tipologiyasi va ularga xos xususiyatlarni yoritish.
10. Budda ibodatxonalari va uning inshootlari.
11. Me'moriy ta'mirning besh turiga izoh bering.
12. O'rta Osiyoda xonliklar davri arxitekturasini (XVI-XVIII asrlar).
13. Panjikent saroyining interer yechimi va devoriy suratlari.
14. Qadimgi shaharsozlikda shahar devori va darvozalari.
15. Me'morchilikda san'at turlari.
16. Samarqanddagi Mirzo Ulug'bek rasadxonasining me'moriy yechimi.
17. O'rta Osiyoda gumbazlarning vujudga kelishi va taraqqiyoti.
18. O'rta asr me'morchiligida epigrafik ornamentlarning qo'llanilishi va ularning turlari.
19. Amir Temur va temuriylar davri arxitekturasini.
20. Sidneydagi Opera teatri binosining me'moriy qiyofasi (Yorn Utson, 1956).
21. So'g'diyananing ilk o'rta asrlar san'ati (Afrosiyob, Panjikent devoriy suratlari).
22. O'rta Osiyo minoralarining turlariga misol keltirish.
23. Bauxauz arxitektura maktabining faoliyati.
24. Madrasalar tipologiyasi.
25. Gotika uslubi va Antonio Gaudi ijodi.

26. Me'morchilikda peshtoqning yuzaga kelishi.
27. Turonning mil.avv.gi V-I asrlar san'ati (Ayrtom, Xolchayon).
28. Buxoro Arkining me'moriy yechimi.
29. O'rta Osiyoda faoliyat yuritgan me'moriy maktablar.
30. Me'morchilikda yog'och o'ymakorligi san'atining rivoji.
31. Samarqanddagi Registon maydonining shakllanishi va rivojlanishi.
32. Zamonaviy me'morlikning an'anaviy xalq san'ati bilan uyg'unlashgan uslubi.
33. Samarqanddagi Go'ri Amir maqbarasi arxitekturasini.
34. Ilk o'rta asrlarda Movarounnahr arxitekturasini.
35. Qarshi shahrining 2700 yillik yubileyi munosabati bilan qaysi tarixiy obidalar qaytadan tiklandi? Misollar keltirish va izoh bering.
36. Boburiylar davri arxitekturasini va san'ati (Hindiston).
37. Toshkent metrosi yo'nalishlari va arxitekturasini.
38. Me'morchilikda maydon-majmualarning vujudga kelishi.
39. Temuriylar tarixi muzeyi arxitekturasini.
40. O'zbekiston Milliy akademik drama teatrining me'moriy-kompozitsion yechimini izohlab bering.
41. Milodiy I-IV asrlarlarda O'rta Osiyo me'morligi.
42. O'zbekistonning zamonaviy me'morchiligida an'anaviy shakllarni qo'llash amaliyoti.
43. Qadimgi Turonning antik davrdagi shaharlari.
44. Oskar Nimeyer ijodi.
45. "Interkontinental" mehmonxona majmuasining me'moriy-kompozitsion yechimiga izoh bering.
46. Istiqlol yillarida Shahrisabz shahrining tarixiy qismida amalga oshirilgan qayta qurish ishlari.
47. Samarqanddagi Shohi-Zinda ansamblida mustaqillik yillarida olib borilgan ta'mirlash ishlari.
48. Xiva minoralari arxitekturasini.
49. Kushonlar davrida Eski Termiz hududida joylashgan manzilgohlar me'morligi.
50. Somoniylar maqbarasi arxitekturasini.
51. O'rta asr bog'larining sxematik yechimi.
52. XIX asrning ikkinchi yarmida ikki tuzilmali shaharlarning shakllanishi (Toshkent va Samarqand misolida).
53. Sopollitepa manzilgohi arxitekturasini.
54. Kalon minorasining arxitekturasini va konstruktiv yechimi.
55. Samarqanddagi Bibihonim masjidi va maqbarasining me'moriy yechimi.
56. Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri arxitekturasini.

57. Karvonsaroylarning tipologik yechimi.
58. O'rta Osiyoda o'rta asrlarda shakllangan majmuasozlik nazariyasi.
59. Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa saroyi arxitekturasini.
60. Istiqlol yillarida Suzuk ota majmuasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari.
61. Qadimgi Sharq arxitektura nazariyasi.
62. Qadimgi Yunon nazariyasi – Gippodam.
63. Ellinizm davri nazariyasi – Aflotun.
64. Qadimgi Rim nazariyasi – Vitruviy.
65. Uyg'onish davri nazariyasi – Vin'ola.
66. Barokko davri nazariyasi – Palladio.
67. Klassitsizm nazariyasi – Perre.
68. XIX-XX asrlar nazariyasi, Fransiya - Le-Korbyuze.
69. XIX-XX asrlar nazariyasi - B.Zasypkin, M.Bulatov.
70. XIX-XX asrlar nazariyasi - P.Zohidov, K.Kryukov.
71. YuNESKO ning me'moriy yodgorliklar va tarixiy shaharlar to'g'risidagi faoliyati.
72. Madaniy meros departamenti faoliyati.
73. O'zbekistondagi tosh va bronza davrlariga oid yodgorliklar.
74. O'zbekistonda joylashgan antik davrdagi yodgorliklar.
75. Sirkor bezak turlari va ularni tayyorlanishiga oid ma'lumot bering.
76. Sinch konstruksiyasi haqida ma'lumot bering.
77. Garmoniya-uyg'unlik haqida ma'lumot bering.
78. Kvadrat va dinamik kvadrat hosilalari.
79. Arxitekturada modul-miqyos.
80. Xalq me'morlari ijodiga xos "Ulgitarh" qonuniyati.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va me'yorij hujjatlar

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari haqida bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 30 avgustdagi "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi 269-II – sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4730 – sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019 yil 30 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy meros departamenti faoliyatini tashkil etish hamda moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 265-sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksi. T.: 2002 y

2. Ilmiy adabiyotlar

1. Architecture. Form. Space.Order. Fransis D.R. Ching.New York John Wiley&Sons.Ins.2014.
2. Abdullaev N.J. San'at tarixi, T. 2, T.: 2002.
3. Abdullaev Sh.N. Arxitektura tarixi. I-qism. T., 2018.
4. Abdurashidov K.S., Kabulov F.R., Raxmanov B.K. Инженерные проблемы архитектурных памятников. T.: 2011 y.

5. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. T.: 2015.
6. Asqarov Sh.D. Arxitektura Uzbekistana i stran SNG. – San'at // 2012.
7. Asqarov Sh.D. Genezis arxitektury Uzbekistana. 2014.
8. Bakirxonov F. F. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi — shaharsozlikni rivojlantirishning qonuniy asosidir. "O'zbekiston arxitekturasini va qurilishi", № 1, 2002, b. 10-11.
9. Ziyaev A.A. Tashkent. I-III chasti. T.: 2009.
10. Kadirova T.F. Puti arxitekturnogo vozrojdeniya Uzbekistana za XX – nach. XXI vv. Monografiya. T.: 2007.
11. Mamatmusaev T.Sh. Mirzo Ulug'bek davri, arxitekturasini. Monografiya. Toshkent: TAQI, "AQIIM" ShK, 2014.
12. Mamatmusaev T.Sh. O'zbekiston tarixiy shaharlarining tipologik rivojlanishi. Monografiya. -Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.
13. Nurmuxamedova Sh.Z. Zakonomernosti i stilevye osobennosti arxitektury Uzbekistana antichnogo perioda. Monografiya. Tashkent. 2018.
14. Po'latov X. Sh. Arxitektura bezaklarini ta'mirlash. T., 2007.
15. Po'latov X.Sh. va boshqalar. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash. Darslik. T., 2009.
16. Po'latov X.Sh. Arxitektura va shaharsozlik tarixi. O'rta Osiyo Arxitekturasini. O'quv qo'llanma, TAQI: 2000.
17. Po'latov X.Sh., Mamatmusaev T.Sh. Shaharsozlik yodgorliklarini qayta qurish. Monografiya. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2007.
18. Po'latov X.Sh. Shaharsozlik tarixi. O'UM. 4-5-6-7 qismlar. T.-2012.
19. Po'latov X.Sh. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari. O'quv qo'llanma. TAQI, 2003.
20. Salimov A.M. Soxranenie i ispolzovanie pamyatnikov arxitektury Uzbekistana. T., 2009.
21. Salomova X.Yu. Me'yorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati. Buxoro: 2018.
22. Salomova X.Yu., To'laganov A.A. Sharq arxitekturasida go'zallik va me'yor. Buxoro: 2019.
23. Uralov A.S., Mamatmusaev T.Sh. Arxitektura shakllarini uyg'unlashtirish va bezash. T.: 2015.
24. Uralov A.S., Yusupov R. O'rta Osiyoning o'tmishdagi ta'lim-tarbiya va ilmfan maskanlari. Samarqand-2005.
25. Uralov A.S., Haqqulov A.G., Abduraimov Sh.M. Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va qayta tiklash tamoyillari. Samarqand: 2020.
26. Uralov A.S. Arxitektura lechbeno – selebnyx uchrejdeniy Sentralnoy Azii i stran zarubejnogo musulmanskogo Vostoka. Samarkand, 2004.

27. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 t. T., 2000-2006.
28. O'rolov A.S. Me'moriy shakllarni uyg'unlashtirish va bezash. Samarqand - 2003.
29. O'rolov A., Nizomov Sh. Obidalaridagi me'moriy uyg'unlik va konstruktiv yaxlitlik. O'quv qo'llanma. T.: TAQI, 2009.
30. Qodirova T.F. XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston arxitekturasini. "O'zbekiston arxitekturasini va qurilishi", №1, 2000, b. 2-5.
31. Qodirova T.F. O'zbekistonning zamonaviy me'morchiligi. O'quv qo'llanma. T.: 1995.
32. Qodirova T.F. O'zbekistonning istiqlol yillari me'morchiligi. T. 2004.

3. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi. T.: 1995.
2. Bulatov M.S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX-XV vv. M., 1978.
3. Vseobshaya istoriya arxitektury. M.: 1 – 2, 8 tom, 1980.
4. Zohidov P.Sh. Kanon garmonii v arxitekture. T., 1982.
5. Zoxidov P.Sh. Me'mor olami. T. 1996.
6. Mankovskaya L.Yu. Tipologicheskie osnovy zodchestva Sredney Azii (IX – nachalo XX v.). T., 1980.
7. Savarenskaya T.F. Istoriya gradostroitel'nogo iskusstva. M.:1984.
8. Qodirova T.F. Navoiy – Navoi. T.:2000.

4. Axborot manbaalari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
4. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
5. www.centrasia.uz
6. www.arx.novosibdom.ru
7. www.zarnews.uz
8. www.ZiyoNET.uz